

O'QUVCHILARDA KREATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI

Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna

Farg'ona davlat universiteti texnologik ta'lim kafedrasi o'qituvchisi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8133506>

ARTICLE INFO

Received: 29th June 2023

Accepted: 08th July 2023

Online: 09th July 2023

KEY WORDS

*Integrativ yondashuv;
o'qituvchi; didaktik; muammo;
tadqiqot; faoliyat;
integratsiyalash;
integratsiyalash yo'nalishlari;
integrativ funksiya;
tizimlashtirilgan; ma'lumotlar;
ta'lim mazmuni; imkoniyatlar;
qiziqish; faoliyat.*

ABSTRACT

Mazkur maqolada kreativlik, qobiliyatlik, ijodkorlik o'quvchilarda kreativ qobiliyatlarni shakllantirish bosqichlari yoritilgan.

Kirish. Ma'lumki, keyingi o'n yil ichida ta'limni isloh qilishda, milliy mustaqillik prinsiplari va xalqning boy intellektual merosi, umumbashariy qadriyatlarining ustuvorligi asosida ta'limning barcha darajalari va bo'g'inlarida ta'lim oluvchilarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish; ta'lim olishda, shuningdek bolalar va yoshlarni ma'naviy axloqiy intellektual va jismoniy jihatdan tarbiyalashda jamoat tashkilotlari mahallalar, xayriya va xalqaro fondlarning rolini kuchaytirish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni amalga oshirish ishlari jadal suratlar bilan olib borildi. Shu amaliy ishlarning boshlanishi sifatida Davlatimiz tomonidan yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantirishning quyidagi maqsadlari belgilab olindi:

- yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantirish va uni muhofaza qilishdan iboratdir;
- ilm-fan va davlat hokimiyati hamjihatligidagi say-harakati, shuningdek ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, intellektual zahiralarni muhofaza qilish va rivojlantirish;
- intellektual imkoniyatni rivojlantirish ishlarini tartibga solish;
- yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantiruvchi psixologik-pedagogik tashkiliy uslubiy asoslarini yaratish.

Belgilangan maqsadlarni amalga oshirish uchun bir qator vazifalar ham qo'yildi:

- Iqtidorli o'quvchi-yoshlarni izlash myexanizmi, psixologik-pedagogik, tashkiliy-uslubiy asoslarini yaratish borasidagi kamchiliklarni aniqlash.
- Intellektual imkoniyatni oshirishda tarbiya jarayonining xususiyatlarini o'rganish.
- Yoshlarning mustaqil faoliyat turlarini o'rganish;



- Yoshlarning ma'naviy intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish manbalarini yaratish;
- Yoshlarning intellektual imkoniyatini oshirish usullarini ishlab chiqish;
- Yoshlarning intellektual imkoniyatini nazariy va amaliy jihatdan o'rganib chiqish;
- Fanning turli sohalaridagi mutaxassislar intellektual imkoniyatini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;
- Ta'lim menejmenti sohasida innovatsion takliflarni o'rganish va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining uchinchi bosqichiga muvofiq ularni ta'lim tizimiga tadbqiq etish;
- bo'lajak rahbar kadrlarning intellektual imkoniyatini oshirish va ko'maklashuvchi yuridik malakani (xorijiy) o'rganish va me'yoriy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish.

Asosiy qism. Bugungi kunda olib borilayotgan intellektual imkoniyatni rivojlantirishga oid barcha ishlarning sifat samaradorligi talab darajasida emas. Jamiyat va davlat oldidagi talablardan kelib chiqib, o'quvchilarning umumta'lim maktablaridagi tahsili davomida intellektual imkoniyatni rivojlantirish ishlarini muvaffaqiyatli olib borish zarur. Bu esa tarbiya jarayoniga psixologik-pedagogik tyexnologiyalarni qo'llashni, zamon talabi darajasida mutlaqo yangi tarbiya tizimini yaratishni talab qiladi.

Har bir o'quvchiga, uning shaxsiy xususiyatidan kelib chiqib, uning intellektual imkoniyatini rivojlantirish maqsadida ta'lim-tarbiya jarayoniga biror psixologik yoki pedagogik uslubni qo'llash murakkab jarayondir. Lekin bu davr talabidir.

Muayyan takomillashgan pedagogik yoki psixologik uslubni qo'llash, uni mantiqiy-nazariy jihatdan to'liq anglab olish va amaliyotga qo'llashgacha bo'lgan murakkab jarayonga qaraganda – jarayonning o'zini loyihalashtirish eng qulay va samarador uslubdir. Ya'ni har bir o'quvchiga individual yondoshish kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga yo'naltirilgan tarbiya tizimi o'qituvchidan yoshlarning intellektual salohiyatini rivojlantirishda tarbiya uslubiyotlariga alohida munosabat bilan yondoshishni, uslubiyotni hamda mavjud holatni to'liq o'rganishni, jarayonga ijodiy muhitni olib kirishni taqozo etadi. Bunga asosiy sabab:


- intellektual ijodiy ishlar jarayonida to'liq muvaffaqiyatga erishish yoki muvaffaqiyatsizlik tahdidining mavjudligi;
- boshlang'ich sinf o'quvchisi to'qnashadigan va ba'zan ko'p yillar davomida muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz kurashadigan hayotiy holatlardan biri – bu fikrining o'ylaganidek ro'yobga chiqmasligini anglash;
- boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'pincha o'zining dunyoqarashi, tasavvurining qanday darajada kengligidan kelib chiqib, fikrlaydi hamda bu fikrlashni mavjudlikning ijobiy, yoki salbiy holatlari bilan bog'lab tahlil qila olmasligidir.

Pedagogik-psixologik tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ta'lim jarayonida o'zlashtirish ko'rsatkichi yoki ijodiyliigi bo'yicha "o'rtamiyona" o'quvchi keyinchalik ijobiy tomonga o'zgarishi, boshqa sohada yuksak natijalarga erishishi, hatto mutaxassisligiga yondosh ixtisoslikda ham o'rnini ko'rsatish mumkin. Ta'lim va ijtimoiy turmushda uquvsiz, "yaroqsiz" deb baholangan insonlar keyinchalik biron bir sohaning yetakchi mutaxasisi sifatida elga tanilishi, yuqori lavozimlarni egallashi, tadbirkor shaxs sifatida kamol topishi hodisasi tajribada ko'p uchraydi. Shuning uchun bilim, ko'nikma va malakalarini egallash jarayonida qobiliyatlar namoyon bo'lsa-da lekin ular bilim, ko'nikma, malakalarga taalluqli emas. Xuddi

shu boisdan, ular bir biri bilan o'zaro tahlil qilgannida qobiliyatlar bilan bilimlar, qobiliyatlar bilan ko'nikmalar mohiyat, mazmun ma'no jihatidan bir biridan farq qiladi. Ushbu pedagogik-psixologik hodisa obrazliroq tushuntirilganda bilim, ko'nikma, malakalar tufayli egallanadigan aniq voqelik deb tasavvur qilinsa, qobiliyatlar shaxsning ruhiy olamidagi hali ro'yobga chiqmagan imkoniyatlaridir. Masalan, o'quvchi yoshlarni mutaxassis sifatida kasbiy faoliyat uchun imkoniyat tarzida gavdalanishi kabi shaxsning qobiliyatlari kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini egallash uchun imkoniyat tariqasida namoyon bo'ladi. Kasbiy bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki yo'qmi, imkoniyat ro'yobga chiqdimi yoki ushalmagan orzu sifatida qolib ketdimi - bularning barchasi ko'pgina omillarga va sharoitlarga bog'liqdir.

Qobiliyatlar bilim, ko'nikma va malakalarda aks etmaydi, balki ularni egallash jarayonida, dinamikasida namoyon bo'ladi. Bu ularda namoyon bo'luvchi pedagogik qobiliyatga egalikdir. Buyuk alloma A.Navoiy "Qobiliyatsiz odamga tarbiya xayf, qobiliyatli odamni tarbiya qilmaslik gunoh" deganlarida yoshlarning ichida eng zukko va qiziquvchanlarini davlat va jamiyat o'z kelajagi poydevori sifatida qarashga chorlagan edi. Pedagogika va psixologiyaning metodologik asosi bo'yicha ko'rsatilishicha qobiliyatlar imkoniyatlar tizimidan tashkil topgan bo'lib, u yoki bu foyiatidagi zaruriy mahorat darajasi haqiqat hisoblanmaydi. O'qituvchi, tarbiyachi bo'lish uchun maxsus bilim berilishi, tabiatga, atrofdagilarga munosabati, idrok qilishi, shaxsiy fazilati, salomatligi, bolalarga bo'lgan mehrining cheksizligi, o'quvchilar, o'quv xonasi, axborot resurs markazi, amaliyot o'tash uchun bog'cha va maktablar, musiqa maktabi va boshqalar muhayyo bo'lishi zarur. Pedagogik qobiliyat turlaridan biri bo'lib, shaxsning pedagogic faoliyatni samarali olib borish va shu sohada muvaffaqiyatlarga, yuqori natijalarga erishish demakdir. Pedagogik qobiliyat mohiyatida pedagogik faoliyatni samarali yo'lga qo'yishga imkon beruvchi nazariy-metodik bilimlar, amaliy ko'nikma va malakalar yotadi. Sohaga oid qobiliyat negizini o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ta'limiy va tarbiyaviy munosabatlar tashkil etadi.

1-rasm



Ta'lim-tarbiya berish jarayonida ta'limning ma'lum bir maqsadga qaratilishi muhim ahamiyatga ega. Ta'lim jarayoni yoshlarning intellektual ijodiy qobiliyatlarini shakllantirmasdan turib ularni ijodiy rivojlantirib bo'lmaydi.



Xulosa. O'quvchilarning intellektual imkoniyatini rivojlantiruvchi har qanday maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va ketma-ket bajariladigan usullar belgilab olinadi:

1. O'quvchilarning intellektual imkoniyatini shakllantiruvchi hislatlarini uyg'otish va rivojlantirish rejalashtiriladi.

2. Mana shu hislatlarni rivojlantirishni amalga oshiruvchi usullarni yaratish yoki intellektual imkoniyatni oshirib borishga xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi.

3. Belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Mana shunday ryejaga solinib olib boriladigan ishlarni amalga oshirish ta'lim-tarbiya tizimi jarayonida ham yoshlarning intellektual imkoniyatini rivojlantirib boradi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyatini oshirib boradi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026 yil " strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining « Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni » 2020 y.
3. Boymurodov N. "Amaliy psixologiya". Toshkent – 2008 y.
4. SH.S Sharipov. "kasb – hunar ta'limi tizimida o'quvchilar ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishning uzluksizligi.Monografiya .T.2005.
5. O'.Q.Tolipov.SH.S.Sharipov "O'quvchi shaxsi ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari" qo'llanmasi T.2012.
6. N.Muslimov.SH.SHaripov. "Texnik ijodkorlik va dizayn" Toshkent 2007.
7. G.T.Hojikarimova "Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini maxsus kompetensiya komponentlarini shakllantirish metodikasi" МУҒАЛЛИМ ҲАМ ЎЗЛИКЦИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ, Илимий-методикалық журнал. № 5 - 2022 жыл. ISSN 2181-7138. <http://www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz/>
8. G.T.Hojikarimova " Социально-педагогические основы формирования креативности учащихся". // Международный научный журнал «Вестник науки» (ежемесячный научный журнал), // № 6 (15) Том 5 июнь 2019 й. Стр 150-154 стр.
9. G.T.Hojikarimova "Conditions for the development of artistic creatives of students in technology " // Zamonaviy fan,ta'lim va tarbiyaning dolzarb muammolari (elektron ilmiy to'plam). №1.2020yil Urganch; Стр 68-74; UDC: 378.1
10. G.T.Hojikarimova Use of innovative courses of innovative character in increasing the quality of education and efficiency of education // Жамият ва инновациялар / Journal home page: <https://inscience.uz/index.php/socinov/index> 1. – ISSN 2308-4804.
11. G.T.Hojikarimova "Supporting innovative approaches in the education system // Academics 10.5958 ISSN: 2249-7137, 2021.



12. G.T.Hojikarimova //Fundamentals Of Development Of Creative Abilities Of Students In Professional Training// The American Journal of Applied Sciences. Volume 3 Issue 01, 2021. 54-57
13. G.T.Hojikarimova “Interfaol o’qitish – innovatsiya sifatida” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-160.101-1076
14. G.T.Hojikarimova “Технология фани амалий машғулотларини ташкил этишининг ташкилий шакллари” SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 3 | 2021 ISSN: 2181-1601.94-986
15. G.T.Hojikarimova “Bo’lajak Texnologik ta’lim o’qituvchilarini kasb maxoratini shakilantirishda kreativlik”// Опубликована в международном научном журнале “Вестник науки”. – № 2 (47) т. 2, г. Толятии от 13 февраля 2022 г. Sayt:www.вестник-науки.рф; email: vestnik-nauk@ya.ru; УДК 37.
16. G.T.Hojikarimova Мутахассислик фанлари ва ишлаб чиқариш интеграцияси замонавий кадрлар тайёрлашнинг инновацион омили сифатида // “SECTORAL RESEARCH XXI: CHARACTERISTICS AND FEATURES III International Scientific and Theoretical Conference”. April 22, 2022 | Chicago, USA | Collection of scientific papers «SCIENTIA»
17. Rakhmanovna, P.O., & Tairovna, I.Z. (2023). INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES TYPES. *Scientific Impulse*, 1(10), 950-955.
18. Parpiyeva, O.R. (2022). TA’LIM OLUVCHILARNI FANLARNI O’ZLASHTIRISHGA QIZIQTIRISH USULLARI. *IJODKOR O’QITUVCHI*, 2(22), 226-230.
19. Parpiyeva, O.R. (2022). Innovative Educational Technologies, Their Nature, Types And Theoretical Fundamentals. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 9, 123-126.
20. Парпиева, О.Р., & Раззоқов, Б.Х. (2022). ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ТУРЛАРИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ. *Scientific Impulse*, 1(5), 1204-1207.